



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-dekabr*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 67-236-70-00*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 262 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 58 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 3204 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-dekabr oyida Sirdaryo viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 5 252,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 107,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 345,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 102,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 907,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 451,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 118,9 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	5 252,8	107,0
Guliston sh.	1 987,5	107,2
Shirin sh.	70,6	104,2
Yangiyer sh.	494,1	109,4
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	302,1	109,0
Guliston	265,6	110,8
Mirzaobod	358,6	107,0
Oqoltin	222,4	106,8
Sardoba	180,3	104,5
Sayxunobod	197,1	104,2
Sirdaryo	1 013,1	105,1
Xovos	161,6	107,0


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan viloyatning Yangiyer sh. (**109,4** %), Guliston (**110,8** %) va Boyovut (**109,0** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr)




So'nggi 5 yillikda (2019- 2023- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2019- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2018- yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ni tashkil qildi.

2023- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2023- yilning yanvar-dekabr oyida o'sish sur'ati **107,0** % ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 37,8 % bilan 1 987,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Shirin shahri 1,3 % bilan 70,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o‘shish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so‘m






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2023 - yilning yanvar-dekabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 4 907,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022–yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 7,3 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,4 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 2,9 % ga o'sdi va 345,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,6 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (99,8 %), Sardoba (98,7 %) va Sirdaryo (98,4 %) hududlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston sh. (8,4 %) va Boyovut (25,7 %), Sayxunobod (4,9 %), Guliston (11,3 %) tumanlarida kuzatildi.

6,6 %



93,4 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Guliston sh.

20 321,8

Shirin sh.

3 657,7

Yangiyer sh.

10 425,0

Boyovut

2 195,3

Guliston

3 374,2

Mirzaobod

4 499,3

Oqoltin

4 014,5

Sardoba

2 583,7

Sayxunobod

2 394,7

Sirdaryo


7 454,9

Xovos

1 592,4

2023- yilning yanvar-dekabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 5 802,3 ming. so'mni (2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 104,9 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (20 321,8 ming. so'm), Yangiyer shahri (10 425,0 ming. so'm) va Sirdaryo (7 454,9 ming. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2023- yil yanvar-dekabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	451,4	118,9
Guliston sh.	96,9	112,1
Shirin sh.	-	-
Yangiyer sh.	21,5	179,8
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	15,9	131,5
Guliston	56,7	123,2
Mirzaobod	55,8	150,7
Oqoltin	-	-
Sardoba	64,5	101,6
Sayxunobod	65,4	111,5
Sirdaryo	33,5	125,3
Xovos	41,2	110,4


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2023- yil yanvar-dekabr)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2023- yil yanvar-dekabr)



Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 451,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 118,9 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 131,7 mlrd. so'mni (97,1 %), chorva mollari va parrandalar stuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 319,7 mlrd so'mni tashkil etdi (130,7 %).













2023-yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 131,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (57,9 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 57,9 mlrd. so'm  44,0 %	Non va non mahsulotlari 23,4 mlrd. so'm  17,8 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 15,2 mlrd. so'm  11,6 %
Tovuq go'shti 8,1 mlrd. so'm  6,1 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 8,3 mlrd. so'm  6,3 %	Tuxum 4,7 mlrd. so'm  3,6 %
Ziravorlar 4,1 mlrd. so'm  3,1 %	Sut va sut mahsulotlari 6,4 mlrd. so'm  4,8 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 0,3 mlrd. so'm  0,2 %
Tuzlamalar 2,1 mlrd. so'm  1,6 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 1,1 mlrd. so'm  0,8 %	Nooziq-ovqat tovarlar 0,0 mlrd. so'm 0,0 %

2023- yilning yanvar-dekabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 319,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 254,2 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 50,7 mlrd. so'mni, otlar – 14,2 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,6 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>114,0 mlrd. so'm</p>  <p>35,7 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>51,9 mlrd. so'm</p>  <p>16,2 %</p>	<p>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>88,3 mlrd. so'm</p>  <p>27,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>38,8 mlrd. so'm</p>  <p>12,1 %</p>	<p>Otlar</p> <p>14,2 mlrd. so'm</p>  <p>4,4 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>11,9 mlrd. so'm</p>  <p>3,7 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,03 mlrd. so'm</p>  <p>0,01%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 692 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	166,0	114,1
Guliston sh.	74,8	108,8
Shirin sh.	3,1	107,0
Yangiyer sh.	22,4	108,5
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	6,0	109,6
Guliston	12,2	112,7
Mirzaobod	10,1	116,8
Oqoltin	4,1	111,4
Sardoba	9,7	3,5 m.
Sayxunobod	5,1	116,8
Sirdaryo	15,1	108,6
Xovos	3,4	105,6

2023- yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 166,0 mlrd. so‘mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 114,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 86,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Sirdaryo viloyati	417,7	100,0
Guliston sh.	147,4	3,2
Shirin sh.	1,2	0,3
Yangiyer sh.	9,3	2,2
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	2,3	0,6
Guliston	15,2	3,6
Mirzaobod	1,2	0,3
Oqoltin	142,8	34,2
Sardoba	6,4	1,5
Sayxunobod	3,0	0,7
Sirdaryo	87,4	20,9
Xovos	1,5	0,4


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (147,4 mlrd. so'm), Oqoltin (142,8 mlrd. so'm) va Sirdaryo (87,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2023- yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 417,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,7 % ga oshdi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 405,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 129,7 %), xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi 12,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 103,6 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 153,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 3 597,7 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,0 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 86,6 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 301 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 282 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga eng yirik korxonalar Oqoltin (140,8), Sayxunobod (155,9) hamda Xovos (107,8) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	4 153,6	106,7
Guliston sh.	1 287,6	104,4
Shirin sh.	16,5	103,6
Yangiyer sh.	241,2	104,3
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	332,6	100,3
Guliston	65,2	90,3
Mirzaobod	172,8	91,1
Oqoltin	66,5	140,8
Sardoba	134,7	96,1
Sayxunobod	511,0	155,9
Sirdaryo	1 139,7	100,7
Xovos	185,8	107,8